

# 47-DARS. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLARNI DASTURLASH. ELIF OPERATORI

Qo'yilgan masalani yechish jarayonida har doim ham bitta shart tekshirilmaydi. Shunday masalalar ham borki, ular yechimini topish uchun bir necha shart tekshirilishi kerak bo'ladi.

1. Shartli o'tish operatorining qanday ko'rinishlari mavjud?
2. Shartli o'tish operatorlari qanday ishlaysi?



BUNI BILASIZMI?

## elif shartli o'tish operatori

Boshqa dasturlash tillarida bir necha shart tekshirilishi zarur bo'lgan hollar uchun CASE tanlash operatori ishlatiladi. Pythonda **CASE** tanlash operatori mavjud emasligi sababli, ko'p shartli masalalarni yechish uchun **elif operatoridan** foydalaniladi. **elif** – **else** va **if** so'zlarining kombinatsiyasi bo'lib, "aks holda agar" ma'nosini anglatadi.

Sintaksisi:

```
if shart:  
    buyruqlar_bloki  
elif shart1:  
    buyruqlar_bloki1  
....  
else:  
    buyruqlar_bloki2
```

### Tayanch tushunchalar

**CASE operatori** – shartdan kelib chiqib, har bir shartga mos buyruqlar ketma-ketligini bajaradigan if ning takomillashgan ko'rinishi.

**shart** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki** bajariladi, aks holda ikkinchi shart – **shart1** tekshiriladi. **shart1** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki1**, aks holda **buyruqlar\_bloki2** bajariladi.

Misol: Kichik kalkulyator dasturini tuzing

```
a=int(input('a='))  
b=int(input('b='))  
amal=input('add/sub/mul/div:')  
if amal=='add':  
    c=a+b  
elif amal=='sub':  
    c=a-b  
elif amal=='mul':  
    c=a*b  
elif amal=='div':  
    c=a/b  
else:  
    c='Error'  
print('Result = ', c)
```

```
a=8  
b=4  
add/sub/mul/div:add  
Result = 12  
a=72  
b=8  
add/sub/mul/div:div  
Result = 64  
a=2  
b=4  
add/sub/mul/div:deg  
Result = Error
```

## Ichma-ich joylashgan if shartli o'tish operatori

**if** shartli o'tish operatori tarkibida boshqa **if** shartli o'tish operatori mavjud bo'lishi mumkin. Bunday holatga *ichma-ich joylashgan shartli o'tish operatori* deyiladi. Ichki **if**ni ifodalash uchun tashqaridagiga nisbatan bitta xat boshi (4 ta probel) tashlab yozilishi shart, aks holda ifoda ichma-ich joylashmagan, alohida shart operatori hosil qilingan hisoblanadi.

Sintaksisi:

**if** *shart*:

**buyruqlar\_bloki**

**if** *shart1*:

**buyruqlar\_bloki1**

.....

**else**:

**buyruqlar\_bloki2**

**shart** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki** bajariladi va ikkinchi shart **shart1** tekshiriladi.

**shart1** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki1** bajariladi.

**shart** False (yolg'on) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki2** bajariladi.

**Misol.** Imtihon natijasini chiqarish dasturini tuzing.

```
result= int(input('Natijani kiritning(0-5 bahoda):'))
if result>=3:
    print('Imtihondan o\'tdingiz!')
if result>=5:
    print('Eng yuqori baho!')
```

```
Natijani kiritning(0-5 bahoda):5
Imtihondan o\'tdingiz!
Eng yuqori baho!
```



1. Masalada faqatgina bitta shart tekshirilsa, qaysi operatordan foydalaniladi?
2. Masalada bir necha shart tekshirilishi lozim bo'lsa-chi?
3. Ichma-ich joylashgan shartlarda ikkala if operatori bir chiziqda joylashsa, dastur to'g'ri ishlaysimi?
4. Tarmoqlanish operatorida buyruqlar ketma-ket ishtirok etsa, ular qanday xizmatchi so'zlar orasida yoziladi?



1. Ikki xonali sonning raqamlari toq ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
2. Uch xonali sonda bir xil raqamlar mavjudligini aniqlovchi dastur tuzing.
3. a va b sondan qaysi biri juft ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
4. 3 ta butun son kiritildi. Qaysi biri juft ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.